

Jurabek Narzullayevich Nusharov

Samarqand shahar kasb-hunar maktabida Yoshlar yetakchisi

Ilmiy rahbar: Shuhrat Nasrillayevich Talibov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yoshlar siyosati jamiyatni rivojlantirish va ijtimoiy o'zgarishlarning muhim omili sifatida turli mexanizm, uslub va strategiyalarni ishlab chiqishni hamda izchil ravishda amaliyotga tadbiq etishni taqozo etish to'g'risida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida, Yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar, Yoshlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, Yakunlovchi qoidalar.*

– Buyuk ajdodimiz Muhammad Xorazmiyning bir hikmati bor: “So‘z – gul, ish – meva”. O‘ylaymanki, bugun belgilab oladigan rejalarimiz qanchalik pishiq-puxta bo‘lsa, ishingiz ham shunchalik yaxshi samara beradi.

Shavkat Mirziyoyev

Biz ushbu maqolamiz orqali Yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratligini aytib o'tish va siz aziz yoshlarga muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan yaratib berilgan imkoniyatlarimiz, huquq va burchlarimiz erkinlik va fuqarolik mas'uliyatimizni eslatib o'tishni maqsad qilganmiz.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunchilik

Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

yoshlarga oid davlat siyosati — davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi;

yoshlar (yosh fuqarolar) — o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslar;

yosh oila — er-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o'ttiz yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol);

yosh mutaxassis — oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini bitirgan, ta'lim muassasasini bitirganidan so'ng olgan ixtisosligi bo'yicha uch yil ichida ishga kirgan va ma'lumoti to'g'risidagi hujjatda ko'rsatilgan ixtisosligi bo'yicha ishlayotganiga uch yildan ko'p bo'lmagan o'ttiz yoshdan oshmagan xodim;

yoshlar tadbirkorligi — yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta'sischilari yosh fuqarolar bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati.

4-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: ochiqlik va shaffoflik;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi;

yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi;

yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi.

5-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash;

yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;

yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;

yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalariidan himoya qilish;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yosh oilalarni ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

6-modda. Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlar

Yoshlarga oid davlat siyosati davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlar yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, yosh fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro‘yobga chiqarishni ta‘minlaydigan zarur shart-sharoitlarni yaratish, jamiyat hayotida ularning o‘rni va faolligini oshirish, sog‘lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalash maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Yoshlarni vatanparvarlik ruhida va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Fuqarolar yig‘inlarida sportning futbol turini yanada rivojlantirish hamda fuqarolar yig‘inlari raislarining o‘rinbosarlari — yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchilarni moddiy rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi “Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori.

2-bob. Yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar

7-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

yoshlarga oid davlat siyosatining ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlaydi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning faoliyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishning borishini umumlashtirish va tahlil qilishni tashkil etadi hamda uni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha davlat organlari va muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining hamkorligini ta'minlaydi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(7-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

7¹-modda. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini tahlil qiladi, shuningdek uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

yoshlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishga, shuningdek ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

xorijda o‘qiydigan yoshlar bilan ishlarni tizimli asosda tashkil etadi;

yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritadi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish masalalari bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlarining hamkorligini ta‘minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qiladi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘radi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Maxsus vakolatli davlat organi va uning hududiy boshqarmalari davlat organlari hamda tashkilotlariga yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlarning ijrosi hamda ularning vakolatlariga kiradigan boshqa muhim masalalar to‘g‘risida asoslantirilgan tushuntirishlar taqdim etish talabi bilan so‘rovlar yuborishga haqli.

Yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishga bevosita yoki bilvosita ta‘sir ko‘rsatadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari maxsus vakolatli davlat organi bilan majburiy tartibda kelishiladi.

(7¹-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 25-yanvardagi O‘RQ-747-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.01.2022-y., 03/22/747/0064-son)

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarori.

8-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

tegishli hududda yoshlarga oid davlat siyosatining ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlaydi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

tegishli hududda yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishning samaradorligini oshirish uchun yoshlarning ehtiyoji monitoringi olib borilishini va baholanishini ta‘minlaydi;

yoshlarning bandligi va ularni ishga joylashtirish siyosati ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi, mehnat bozori va yosh mutaxassislarni ishga joylashtirish amaliyoti monitoringini tashkil etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(8-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

9-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar tizimi

Yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari;

davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari;

jismoniy tarbiya va sport bo'yicha organlar;

(9-moddaning birinchi qismi to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

madaniyat organlari;

(9-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-sonli Qonuniga asosan beshinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

mehnat organlari;

prokuratura organlari;

ichki ishlar organlari;

adliya organlari;

mudofaa ishlari bo'yicha organlar.

Yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda boshqa organlar va muassasalar ham qonunchilikka muvofiq ishtirok etishi mumkin.

(9-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

10-modda. Ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlarining va ta'lim muassasalarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

Ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

ta'lim sifatini oshirishga, malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni va boshqa hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

manfaatdor organlar va muassasalar bilan birgalikda o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligining tahlilini amalga oshiradi hamda uning natijalari asosida ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

yoshlarning ta'limi va tarbiyasi sifatini oshirish, o'quv jarayoniga ta'limning zamonaviy shakllari va usullarini joriy etish chora-tadbirlarini ko'radi;

ta'lim muassasalarida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni ta'minlash maqsadida sport seksiyalari, fan, texnika to'garaklari va ijodiy to'garaklar, klublar tashkil etadi;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, shuningdek ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga doir faoliyatda ishtirok etadi;

imkoniyati cheklangan yoshlarga ijtimoiy-psixologik va pedagogik yordam ko'rsatadi;

yosh fuqarolarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(10-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

11-modda. Davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlarining va sog'liqni saqlash muassasalarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

Davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlar o'rtasida sanitariya-gigiyenaga oid bilimlarni tarqatish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha targ'ibotni tashkil etadi;

yoshlar o'rtasida tizimli tibbiy tekshiruvlarni tashkil etadi;

imkoniyati cheklangan yoshlarni tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

ichkilikbozlikka, giyohvandlikka, zaharvandlikka chalingan, ruhiy holati buzilgan, yuqumli kasalliklarga va boshqa ijtimoiy xavfli kasalliklarga chalingan yosh fuqarolarni

aniqlaydi, ularni hisobga olishni, tekshiruvdan o'tkazishni, shuningdek tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilishni va ijtimoiy moslashtirishni amalga oshiradi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(11-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

12-modda. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha organlarning yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha organlar:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga bo'lgan intilishni va sportga qiziqishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar o'rtasida xalq o'yinlari, milliy va boshqa sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilishini tashkil etadi;

yoshlar o'rtasida xalqaro sport aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlashda, sport musobaqalarini o'tkazishda ishtirok etadi;

jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro hamda respublika miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda iqtidorli va iste'dodli yoshlarning ishtirok etishini ta'minlaydi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha organlar qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(12-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

121-modda. Madaniyat organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

Madaniyat organlari:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlar oʻrtasida badiiy ijodiyot, xalq va havaskorlik ijodiyoti targʻibotini amalga oshiradi;

yoshlar oʻrtasida kino, teatr, musiqa, xoreografiya, tasviriy sanʼatni, sirk, xalq amaliy sanʼatini va estrada sanʼatini rivojlantirishga, ularning gʻoyaviy-badiiy va axloqiy saviyasini oshirishga koʻmaklashadi;

yoshlar oʻrtasidagi ommaviy-madaniy va bayram tadbirlari gʻoyaviy mazmun bilan toʻldirilishini taʼminlaydi, ijodiy uyushmalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yoʻlga qoʻyadi;

yoshlar oʻrtasida xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashda, konferensiyalar va koʻrgazmalar oʻtkazishda ishtirok etadi;

ijodkor yoshlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlaydi, ularning oʻz iqtidori va isteʼdodini toʻlaqonli namoyon qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

ijodiy safarlar tashkil etilishini hamda madaniyat sohasida xalqaro va respublika miqyosida oʻtkaziladigan koʻriklarda, tanlovlarda, festivallarda, boshqa tadbirlarda iqtidorli va isteʼdodli yoshlarning ishtirok etishini taʼminlaydi;

milliy oʻzlikni anglashda mustaqillik, yuksak maʼnaviyat, insonparvarlik anʼanalariga sadoqat gʻoyalarini yanada chuqur singdirish, radikalizm va ekstremizmning yot gʻoyalariga qarshi immunitetni mustahkamlash borasida yoshlar oʻrtasida maʼrifiy ishlarni amalga oshiradi;

xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi asarlar yaratishda ijodiy jamoalarga, ayniqsa ijodkor yoshlarga har tomonlama koʻmaklashadi;

yoshlarga oid davlat siyosatini roʻyobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Madaniyat organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(12¹-moddaning ikkinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi OʻRQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

13-modda. Mehnat organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

Mehnat organlari:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarning bandligi darajasini tizimli asosda tahlil qiladi, ularning bandligini taʼminlashda ishtirok etadi;

yoshlarni kasbga oʻqitish va qayta tayyorlash boʻyicha tizimni tashkil etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatini roʻyobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Mehnat organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(13-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

14-modda. Prokuratura organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

Prokuratura organlari:

Oldingi tahrirga qarang.

yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonunchilikning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

(14-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi;

yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir faoliyatda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Prokuratura organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(14-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

15-modda. Ichki ishlar organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

Ichki ishlar organlari:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir faoliyatda ishtirok etadi;

yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;

yosh fuqarolarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko‘radi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Ichki ishlar organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(15-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

16-modda. Adliya organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

Adliya organlari:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir faoliyatni amalga oshiradi hamda muvofiqlashtiradi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Adliya organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(16-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

17-modda. Mudofaa ishlari bo'yicha organlarning yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari

Mudofaa ishlari bo'yicha organlar:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligini tashkil etishda ishtirok etadi;

yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir tadbirlarda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Mudofaa ishlari bo'yicha organlar qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(17-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

18-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ishtirok etishi

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda kam ta‘minlangan oilalardan bo‘lgan yosh fuqarolarga qonunchilikda belgilangan tartibda qo‘shimcha moddiy yordam ko‘rsatadi;

(18-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, ularning jamiyat hayotidagi roli va faolligini oshirishga, sog‘lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalashga, oilada ma‘naviy-axloqiy muhitni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘radi;

yoshlarni tarbiyalash masalalari yuzasidan ta‘lim muassasalari va boshqa muassasalar bilan hamkorlik qiladi;

tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda yoshlarning bandligini ta‘minlashga ko‘maklashadi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonunchilikning ijro etilishi, davlat dasturlarining va hududiy dasturlarning ro‘yobga chiqarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

(18-modda birinchi qismining yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda boshqa organlar va muassasalar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qiladi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

(18-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

19-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtirok etishi

Nodavlat notijorat tashkilotlari:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarda hayotga boʻlgan qatʼiy ishonch va qarashlarni shakllantirishda, ularni qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli taʼsirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan qilib tarbiyalashda ishtirok etadi;

sogʻlom va barkamol yoshlarni tarbiyalashga, jamiyat hayotida ularning roli hamda faolligini oshirishga doir tadbirlarni tashkil etadi va oʻtkazadi;

yoshlarni ijtimoiy jihatdan qoʻllab-quvvatlashni, yosh fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni hamda roʻyobga chiqarishni taʼminlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga koʻmaklashadi;

fan, sport, sanʼat va madaniyat sohasida yoshlarning ijodiy isteʼdodi va qobiliyatini erta aniqlashga hamda rivojlantirishga koʻmaklashadi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonunchilikning ijro etilishi, davlat dasturlarining va hududiy dasturlarning roʻyobga chiqarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

(19-modda birinchi qismining yettinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi OʻRQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

yoshlarda sogʻlom turmush tarziga intilishni shakllantirishda, yuqumli kasalliklarga va boshqa ijtimoiy xavfli kasalliklarga, ichkilikbozlikka, giyohvandlikka, zaharvandlikka, kashandalikka hamda oʻzga zararli illatlarga qarshi kurashishga doir profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirishda, yoshlarning boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda, yoshlar sportini ommaviy rivojlantirishda ishtirok etadi;

yoshlar orasida ekologik madaniyatni oshirishga, ekologik taʼlim va tarbiyani rivojlantirishga koʻmaklashadi;

qonunchilikda belgilangan tartibda yoshlarni oʻqitish bilan shugʻullanishi mumkin;

(19-modda birinchi qismining oʻninchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi OʻRQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

yoshlarni tadbirkorlikka jalb etishga, kasbga yoʻnaltirishga, qayta tayyorlashga va malakasini oshirishga koʻmaklashadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

(19-moddaning ikkinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi OʻRQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Davlat yoshlarga oid davlat siyosatini roʻyobga chiqarishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtirok etishini kafolatlaydi va taʼminlaydi.

20-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ommaviy axborot vositalarining ishtirok etishi

Ommaviy axborot vositalari:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga, shu jumladan sog'lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalashga, jamiyat hayotida uning roli va faolligini oshirishga, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarni yoritadi;

yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashishga doir tadbirlarda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonunchilikning ijro etilishi, davlat dasturlari va hududiy dasturlar ro'yobga chiqarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

(20-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar, shuningdek fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha hamkorlik qiladi.

Ommaviy axborot vositalari qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

(20-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

21-modda. Yoshlarning nodavlat notijorat tashkilotlari

Yoshlarning nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z ishtirokchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan, yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishni hamda himoya qilishni, shuningdek yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishni o'zining maqsadlari deb biladigan, o'zini o'zi boshqaradigan tashkilotdir.

Yoshlarning nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat moddiy va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, ularga qonunchilikda belgilangan tartibda ta'lim muassasalarining binolaridan, klublar, madaniyat va aholi dam olish markazlaridan, sport inshootlaridan va boshqa inshootlardan foydalanish huquqini beradi.

(21-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yoshlarning nodavlat notijorat tashkiloti o‘z ustavida nazarda tutilgan, faoliyatini moddiy jihatdan ta’minlash uchun zarur bo‘lgan binolarga, inshootlarga, uy-joy fondiga, uskunalarga, ashyolarga, madaniy-ma’rifiy va sog‘lomlashtirish uchun mo‘ljallangan mol-mulkka, pul mablag‘lariga, qimmatli qog‘ozlarga va boshqa mol-mulkka ega bo‘lishi mumkin.

O‘n to‘rt yoshga to‘lgan shaxs yoshlarning nodavlat notijorat tashkiloti a‘zosi bo‘lishi mumkin. Yoshlarning nodavlat notijorat tashkilotiga a‘zo bo‘lish, a‘zolikni yo‘qotish shartlari va tartibi, shu jumladan yoshiga ko‘ra uning a‘zolidan chiqish shartlari tegishli nodavlat notijorat tashkilotining ustavida belgilanadi.

3-bob. Yoshlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish

22-modda. Yoshlar huquqlari va erkinliklarining kafolatlari

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga hamda qonunga muvofiq har bir yosh fuqaroning huquqlari va erkinliklari kafolatlanadi.

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bulimi.

Yosh fuqarolarning huquqlari va erkinliklari cheklanishi mumkin emas, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, yoshlarning huquqlari va erkinliklarini biror bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi hamda bunday cheklash qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

(22-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi.

Davlat voyaga yetmaganlarni jazoni ijro etish muassasalarida va ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalarida saqlashda shaxsning huquqlariga va qadr-qimmatini hurmat qilinishiga, insonparvarlik prinsiplariga rioya etilishini kafolatlaydi.

Voyaga yetmaganlar uchun ular sodir etgan huquqbuzarlikning og‘irlik darajasi va ularning yoshi hisobga olingan holda jazoni ijro etish muassasalarida va ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalarida qonunchilikka muvofiq tabaqalashtirilgan rejimda saqlash nazarda tutiladi.

(22-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

23-modda. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish kafolatlari

Qonunchilikda belgilangan tartibda yoshlar uchun quyidagilar kafolatlanadi:

(23-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

bepul tibbiy xizmat ko‘rsatilishi;

bepul umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim olish;

davlat ta’lim muassasalarida davlat grantlari doirasida bepul kasb-hunar va oliy ta’lim olish;

(23-moddaning birinchi qismi uchinchi va to‘rtinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 23-iyuldagi O‘RQ-486-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son)

davlat sport-sog‘lomlashtirish va madaniy-ma’rifiy muassasalariga borish uchun shart-sharoitlar yaratish;

uy-joy qurish, olish va uni rekonstruksiya qilish uchun imtiyozli kreditlar berish;

ta’lim muassasalarida o‘qish uchun imtiyozli kreditlar berish;

yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni turar joylar bilan ta’minlash;

o‘rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ta’lim muassasasini bitirganidan keyin bandlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

mehnat sohasida yoshga doir o‘ziga xosliklarni inobatga olgan holda imtiyozlar berish va ishni ta’lim bilan qo‘shib olib borish uchun shart-sharoitlar yaratish;

ijtimoiy infratuzilma obyektlarini loyihalashtirish va qurish chog‘ida yoshlarning ehtiyojlarini hisobga olish;

jamoat transportidan foydalanishda imtiyozlar berish.

Ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan yosh fuqarolarni ishga joylashtirishga yordam qo‘shimcha ish o‘rinlari va ixtisoslashtirilgan korxonalarini barpo etish, o‘qitish bo‘yicha maxsus dasturlarni tashkil etish, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan yoshlarni ishga joylashtirish uchun korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda ish joylarining eng kam miqdori zaxirasini yaratish yo‘li bilan ta’minlanadi.

Kam ta’minlangan yosh oilalarga qonunchilikda belgilangan tartibda moddiy yordam berish choralari ko‘rilishi mumkin.

O‘quv jarayoni vaqtida o‘quvchilar va talabalarni jamoatchilik ishlariga jalb etishga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan ular tomonidan tanlangan mutaxassislikka mos va o‘quv-ishlab chiqarish amaliyotining shakli bo‘lgan hollar yoxud o‘quvchilar va talabalar o‘qishdan bo‘sh vaqtida ixtiyoriy mehnat qilgan hollar mustasno. Mazkur mehnat faoliyatiga mehnat to‘g‘risidagi yoki fuqarolik qonunchilikka muvofiq shartnoma mavjud bo‘lgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi.

Qonunchilikda yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning boshqa kafolatlari ham berilishi mumkin.

(23-moddaning uchinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

24-modda. Yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari

Yosh fuqarolar va yosh oilalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida davlat tomonidan quyidagilar vositasida yoshlarni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari nazarda tutilishi mumkin:

oilaviy hayotga oid muammolar, psixologik-pedagogik, huquqiy va boshqa masalalar yuzasidan maslahatlar berish tizimini rivojlantirish;

yoshlarga ijtimoiy xizmat, ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari tizimini rivojlantirish;

yoshlarning dam olishi va ularni sog'lomlashtirishni tashkil etish tizimini rivojlantirish.

Qonunchilikda yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning boshqa qo'shimcha chora-tadbirlari ham nazarda tutilishi mumkin.

(24-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

25-modda. Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash:

qonunchilikda belgilangan tartibda mukofotlar, stipendiyalar belgilash, ta'lim grantlari taqdim etish;

(25-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

fan, madaniyat va san'at sohasida ijodiy ustaxonalar va maktablarni tashkil etishga ko'maklashish;

umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida sport seksiyalari, fan, texnika to'garaklari va ijodiy to'garaklar faoliyatini tashkil etish;

iqtidorli va iste'dodli yoshlarni aniqlash va rag'batlantirish maqsadida tanlovlar, olimpiadalar, ko'rgazmalar, festivallar, ko'riklar, konsertlar, simpoziumlar, o'qishlar, konferensiyalar, seminarlar tashkil etish hamda o'tkazish;

yoshlarga oid xalqaro tajriba almashuvi;

iqtidorli va iste'dodli yoshlarni ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida, shu jumladan xorijiy mamlakatlarda o'qitish, qayta tayyorlash va amaliyotni o'tash dasturlaridan tanlov asosida foydalanishini ta'minlash;

ilmiy-tadqiqot, madaniy-ma'rifiy ishlarni o'tkazish uchun yosh mutaxassislar va olimlarga shart-sharoitlar yaratish, yosh olimlarning ishlanmalarini amaliyotga joriy

etishga ko‘maklashish, shuningdek yoshlarning kadrlar salohiyatini saqlab qolish hamda rivojlantirish;

sport-ta‘lim muassasalari, klublari tarmoqlarini rivojlantirish, iqtidorli va iste‘dodli yosh sportchilarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar o‘rtasida sport musobaqalarini o‘tkazish;

iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlayotgan jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikda belgilangan tartibda rag‘batlantirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

(25-modda birinchi qismining o‘ninchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Qonunchilikda iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning boshqa chora-tadbirlari ham nazarda tutilishi mumkin.

(25-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

26-modda. Yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

Davlat yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash:

davlat organlari tomonidan yoshlar tadbirkorligini tashkil etishda ko‘maklashish; yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish maqsadida imtiyozli kreditlar berish; yoshlarni tadbirkorlik faoliyati asoslari bo‘yicha o‘qitish, ta‘lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasida hamkorlikni shartnoma asosida rivojlantirish;

yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan qonunchilikka muvofiq tegishli imtiyozlar va afzalliklar belgilanadi.

(26-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” Qonunining 5-bobi.

27-modda. Yoshlar ijtimoiy xizmati

Yoshlarni va yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida yoshlar ijtimoiy xizmati faoliyat ko‘rsatadi.

Yoshlar ijtimoiy xizmati faoliyatining yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

yosh fuqarolarga psixologik-pedagogik, yuridik yordam ko‘rsatish va maslahatlar berish;

imkoniyati cheklangan yosh fuqarolarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish;

yosh oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish;

ta'lim va mehnat jamoalarida yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

yosh mutaxassislariga yangi ish joyiga moslashishida, ularni qayta tayyorlashga va ularning malakasini oshirishga, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ularni uy-joy bilan ta'minlashga ko'maklashish;

(27-modda ikkinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

voyaga yetmaganlar uchun ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida ijtimoiy yordam ko'rsatish;

ozodlikdan mahrum etish joylaridan va ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yosh fuqarolarni ijtimoiy moslashtirish;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga ko'maklashish;

huquqiy targ'ibot, yoshlarni ishga joylashish, ta'lim olish va kasbiy tayyorgarlik borasida, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, turizm va sport sohasidagi imkoniyatlar to'g'risida xabardor etish;

yoshlarning yashash joylarida bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishini tashkil etish.

Yoshlar ijtimoiy xizmati o'z faoliyatini qonunchilikka muvofiq boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham amalga oshirishi mumkin.

(27-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

28-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatini moliyaviy jihatdan ta'minlash

Yoshlarga oid davlat siyosatini moliyaviy jihatdan ta'minlash qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining, homiylarning mablag'lari va boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

(28-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

29-modda. Nizolarni hal etish

Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

(29-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

30-modda. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

(30-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

31-modda. Ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish

Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

1) O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi 429-XII-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, № 2, 80-modda);

2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini kuchga kiritish tartibi haqida”gi 430-XII-sonli Qarori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, № 2, 81-modda);

3) O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 621-I-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 5–6, 102-modda) I bo‘limining 3-bandi;

4) O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 621-II-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, № 5, 90-modda) III bo‘limi;

5) O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi 714-II-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2005-yil, № 1, 18-modda) I bo‘limining 8-bandi;

6) O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda qabul qilingan “Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-197-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 12, 640-modda) 3-moddasi.

32-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

(32-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

33-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Ushbu Qonun “Xalq so’zi” gazetasining 2016-yil 15-sentabrdagi 182 (6617)-sonida e’lon qilingan.

Toshkent sh.,

2016-yil 14-sentabr,

O’RQ-406-son

(O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2016-y., 37-son, 426-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 26.01.2022-y., 03/22/747/0064-son)

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING AYRIM HUJJATLARIGA O’ZGARTIRISHLAR VA QO’SHIMCHA KIRITISH TO’G’RISIDA (O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING “YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA O’ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI FAOLIYATINI QO’LLAB-QUVVATLASH TO’G’RISIDA” 2017-YIL 5-IYULDAGI PF-5106-SON FARMONI)

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O’zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to’g’risida” 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son Farmoniga muvofiq:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ilovaga muvofiq ayrim hujjatlariga o’zgartirishlar va qo’shimcha kiritilsin.
2. Vazirliklar va idoralar o’zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu Farmonga muvofiqlashtirsinlar.
3. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O’zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi K.K. Kuranbayev zimmasiga yuklansin.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O’zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyatini qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi PF-5106-sonli farmoni va 2017 yil 18 iyuldagi “O’zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3138-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O’zbekiston banklari Assotsiatsiyasida Yoshlar ittifoqining boshlang’ich tashkiloti tashkil qilindi.

Yoshlar ittifoqining boshlang’ich tashkiloti o’z faoliyatida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish borasida O’zbekiston

banklari Assotsiyatsiyasi tizimida xizmat qilayotgan yoshlar vakillarining taklif va mulohazalarini ilgari surib boradi.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
BMT Bosh Assambleyasining*

72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan

O‘ZBEKISTON – YOSHLAR MAMLAKATI

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma‘lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta‘lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e‘tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma‘noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.



Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko‘p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani

ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O‘zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xaqlaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o‘‘sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat‘iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.



Alohida ta‘kidlash joiz, «2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»da ham bu masala alohida o‘z aksini topdi. Jumladan, yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi:

birinchidan, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat‘iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

ikkinchidan, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

uchinchidan, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo‘ldi. Farmon bilan «Yoshlar – kelajagimiz» jamg‘armasi tashkil etildi va ushbu jamg‘arma yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishi belgilab qo‘yildi. Ushbu hujjatga e‘tibor qaratisa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganligini ko‘rish mumkin.

O‘z navbatida, O‘zbekistondagi barcha o‘zgarishlarning negizi hisoblangan ta‘lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda ta‘lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti xarajatlar umumiy qiymatining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etmoqda. Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni ko‘tara olmaydi, ammo qanchalik og‘ir bo‘lmasin, buning uchun zarur mablag‘ va resuslar izlab topilmoqda.



O‘zbekiston rahbari mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qo‘yilgan eng samarali sarmoya deb hisoblab, ta‘lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta‘kidlamoqda. Haqiqatan ham, islohotlarning taqdiri, natijasi, birinchi navbatda, kadrlar saviyasiga, ularning davr va taraqqiyot talablariga nechog‘li javob bera olishiga bog‘liq.

Shu maqsadda, mamlakatda Maktabgacha ta‘lim vazirligi tashkil etildi, maktab ta‘lim tizimi tubdan isloh qilinib, 11 yillik umumiy o‘rta ta‘lim qayta joriy etildi. Viloyatlarda yangi oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy va ijodiy markazlar tashkil etilmoqda. Oliy o‘quv yurtlariga qabul kvotalari sezilarli darajada kengaytirildi. Sirtqi va kechki oliy ta‘lim shakllari tiklandi. Keying ikki yil ichida 15 dan ortiq rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari filiallari ochildi.

Muxtasar aytganda, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda.

Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtomoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi sa’y-harakatlarni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tasabbusning ilgari surilishi O‘zbekiston tarixida yoshlar ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.



Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va ba yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To‘rtinchi tashabbus – yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash masalalarini nazarda tutadi.

Davlat rahbarining bu ezgu g‘oyasi O‘zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinib, qisqa vaqt ichida mamlakat bo‘ylab keng quloq yozdi.

Kelgusida real hayotga keng joriy etiladigan ushbu besh tashabbusga ko‘ra, hududlardagi madaniyat markazlari, musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holati keskin yaxshilandi, yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo‘shimcha yana 1,5 mingta to‘garak tashkil etiladi. Hatto eng chekka qishloqlardagi madaniyat markazlarida ham badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va «Yoshlar klublari» faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, mamlakat miqyosidagi 12 mingdan ziyod sport inshootiga yoshlarni maksimal darajada qamrab olish choralari ko‘rib, barcha umumta’lim maktablari sport anjomlari bilan to‘liq jihozlanadi. Shu bilan birga, olis va chekka hududlarda

yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar quriladi. Bolalar va o'smirlar sport maktablari soni yanada ko'paytiriladi.



Yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalari bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha hududlarda Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etiladi. Bu maskanlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o'rgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida biznes bo'yicha innovatsion ko'nikmalar shakllantiriladi, «startap» loyihalarga yordam ko'rsatiladi. Shuningdek, 2021-yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, bosqichama-bosqich amalga osiriladi. Yangi tashkil etiladigan kompyuter o'yinlari markazlari yosh avlodning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan test, viktorina, rivojlanish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bilan ta'minlanadi.

Yoshlarda kitobxonlik ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida, yangi tashabbus doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxadan kam bo'magan miqdorda kitoblar yetkazib berildi. Shuning barobarida, har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do'koni tashkil etiladi, ko'chma kitob pavilyonlari joylashtirilib, «Bibliobus»lar orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmatlari ko'rsatib boriladi.



Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash maqsadida 2019–2020-yillarda barcha tumanlarda 195 ta tikuv-trikotaj korxonasi barpo etish uchun aholi zich yashaydigan, mehnat resurslari ko'p joylar tanlab olindi. Natijada 24 mingdan ortiq doimiy ish o'рни yaratish nazarda tutilgan.

Umuman, yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, unung samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shu bois O'zbekiston jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi yoshlar qatlamiga «muammo» deb emas, balki yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaramoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryapti.

«Taraqqiyot strategiyasi» markazi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. lex.uz
2. “Yangi O‘zbekiston – Iqtisodiy barqarorlik va farovonlik sari dadil qadam”
3. Akademik litsey, Kasb-hunar maktabi, Kollej va texnikumlarda boshlang‘ich tashkilot faoliyatini tashkil etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma Toshkent-2021
4. Advice.uz
5. Taraqqiyot strategiyasi - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.
6. «Taraqqiyot strategiyasi» markazi